



BOSHLANG'ICH TA'LIM TABIIY FANLARI DARSLARIDA EKSKURSIYA TASHKIL QILISHNING AFZALLIKLARI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Alimardonova Mo'tabar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Qoryog'diyeva Mohinur

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida tabiiy fanlar darslarini ekskursiya orqali tashkil etishning afzalliklari yoritilgan. Ekskursiya – o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tafakkur, atrof-muhitga mehr va ekologik ongni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ekskursiya darslari sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning bir turi bo'lib, u orqali o'quvchilar dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash orqali yanada mustahkamroq o'rganadilar. Bundan tashqari maqolada ekskursiya turlari haqida hamda o'quvchilarda ekologik madaniyatni yuksaltirish haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ekskursiya, tabiiy fanlar, boshlang'ich ta'lim, kuzatuvchanlik, amaliyot, ekologik tarbiya.

Ключевые слова: экскурсия, естественные науки, начальное образование, наблюдение, практика, экологическое образование.

Keywords: excursion, natural sciences, primary education, observation, practice, environmental education

Kirish

Boshlang'ich ta'lim – bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, ayniqsa, tabiiy fanlarni o'qitish bu davrda muhim rol o'ynaydi. Bu fanlar orqali o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan munosabat, qiziqish, kuzatish va fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Ammo ushbu ko'nikmalarni faqat darslik va sinfdagi suhbatlar orqali emas, balki real hayotdagi hodisa va obyektlarni bevosita kuzatish orqali chuqurlashtirish mumkin. Shu sababli ekskursiya usuli boshlang'ich ta'limda dolzarb metodlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda



amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ta'limga alohida e'tibor qaratilayotgani ham bunga asos bo'lmoqda.

Asosiy qism

Ekskursiya darslari o'quvchilarga o'rganilayotgan ob'ekt va hodisalarni o'z ko'zlari bilan ko'rish, ularni his qilish, savol-javoblar orqali mavzuni tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul ayniqsa tabiiy fanlar uchun juda qulay, chunki tirik tabiat, landshaft, suv manbalari, o'simlik va hayvonot olami kabi mavzularni bevosita kuzatish orqali o'quvchilar bilimni o'zlashtirish bilan birga, ekologik madaniyat va tabiatni asrashga bo'lgan e'tiborini shakllantiradi.

Bundan tashqari, ekskursiya o'quvchilarning:

- motivatsiyasini oshiradi,
- faol fikrlashga undaydi,
- o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantiradi,
- tashabbuskorlik va mas'uliyatni kuchaytiradi.

Ekskursiya darslari turli xil joylarda tashkil etilishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda ekskursiya darslari asosan maktab hududidan chiqmagan holatda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, maktab hududi misolida oladigan bo'lsak, maxsus laboratoriya xonalariga, maktab bog'i yoki gulzoriga, issiqxonaga o'quvchilarni sayohatga olib borsa, va undagi o'simliklarning tuzilishi, yashashi haqida ma'lumotlar berilsa bolalarning xotirasida umrbod muhrlanib qolishiga sabab bo'ladi. Zero dono xalqimiz aytganidek, " Ming marotaba eshitgandan bir marotaba ko'rgan afzal". Tabiiy fanlar darsida ekskursiya uchun maktab hududidan tashqarida qo'riqxonalariga, milliy bog'larga, tog', adir va yaylovlarga, hayvonot bog'lariga borish ham mumkin. Biroq buning uchun maktab ma'muriyati bilan maslahatlashib ushbu jarayonni tashkil etish zarur. Bunday sayohatlar o'quvchi uchun esda qolarli yorqin lahzalarga boy, bilim beruvchi hamda ekologik madaniyatni oshirishga urg'u beradigan tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ekskursiya davomida bolalar nafaqat o'rganadi, balki tabiat bilan muloqotga kirishib, hissiy tajriba orttiradi. Bu esa ularning xotirasida chuqurroq iz qoldiradi. Ekskursiyalar dars jarayonini jonlantiradi, o'quvchini passiv tinglovchidan faol



ishtirokchiga aylantiradi. Bu metod ko'p hollarda quyidagi didaktik tamoyillarni ta'minlaydi:

- Ko'rgazmalilik: o'quvchilar mavzuni real ob'yektlar orqali o'rganadilar, bu esa ularning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.
- Hayot bilan bog'liqlik: ekskursiyada olingan bilimlar kundalik hayot tajribasi bilan uyg'unlashadi.
- Faollik va mustaqillik: ekskursiyalar o'quvchilarni mustaqil kuzatish, taxlil qilish va xulosa chiqarishga o'rgatadi.
- o'quvchilarda tabiatga mehr-muhabbat, uni asrash hissini tarbiyalaydi;
- guruh bo'lib harakat qilish orqali ijtimoiy moslashuv, madaniyatli yurish-turish va hamkorlik madaniyati shakllanadi;
- milliy tabiat, yurt manzaralari, tarixiy maskanlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini oshiradi.

Xulosa

Ekskursiya boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishning samaradorligini oshirishda muhim metod bo'lib xizmat qiladi. U darslarni hayotiyalashtirish, bolalarning dunyoqarashi va bilim darajasini chuqurlashtirishda asosiy vositalardan biridir. Shu sababli, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi ekskursiyani darsning ajralmas qismi sifatida rejalashtirishi zarur.

Shuningdek, ekskursiyalar o'quvchilar orasida jamoaviylik, o'zaro hurmat, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, o'zini tutish madaniyati kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa nafaqat darsdagi, balki hayotdagi faol ishtirokni ta'minlashga zamin yaratadi.

Ekskursiyalarni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi puxta reja tuzishi, xavfsizlik choralarini ko'rishi, bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni rejalashtirishi zarur. Maqsadli va mavzuga mos ekskursiyalar boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarning o'zlashtirilishini yanada yuqori bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axmedova M. Sh. (2021). Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.



2. Raxmonova G. T. (2020). Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. Samarqand: Zarafshon.
3. Xayrullayeva D. A. "Interaktiv metodlar orqali boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish". – Toshkent: TDPU, 2019.
4. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" jurnali. – 2022-yil, 3-son.